


Ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shniçilik O'zbekiston-Turkmaniston strategik sherikligining rivoji uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda muzokara o'tkazdilar.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlik barcha yo'nalishlarda izchil kengayib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

- Ming yillar davomida o'zbek va turkman xalqlari yonma-yon yashab, bir-biriga tayanch bo'lib kelganlar, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Keyingi oylarda davlat rahbarlari oltinchi marta uchrashayotgani O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarning yorqin dalilidir.

Prezidentimiz Turkmaniston Milliy Kengashi Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov mamlakatlarimiz o'rtasidagi jadal rivojlanib borayotgan bugungi hamkorlikning mustahkam poydevorini shakllantirishga ulkan hissa qo'shganini qayd etdi.

Iqtisodiyot ikki tomonlama munosabatlarning yetakchi kuchi bo'lib xizmat qilayotgani, mamlakatlarimizning ulkan salohiyatini ishga solish uchun ko'proq harakat qilish zarurligi ta'kidlandi. Keyingi yillarda o'zaro savdo jadal sur'atda oshib bormoqda.

O'zbekiston-Turkmaniston Chegaraoldi savdo zonasi ishbilarmon doiralar o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirish, hududlarda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishi qayd etildi. Bugun davlat rahbarlari ushbu zonaning qurilishini boshlab beradilar.

Tomonlar kooperatsiya loyihalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Sanoat, energetika, kimyo

tarmog'i va qishloq xo'jaligi kabi ustuvor tarmoqlarda yangi loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish borasidagi ishlarni kuchaytirishga kelishib olindi.

Transport sohasi - hamkorlikning strategik yo'nalishlaridan biri. Davlat rahbarlari "Sharq - G'arb" va "Shimol - Janub" yo'nalishlarida, shu jumladan Turkmanboshi porti imkoniyatlaridan foydalangan holda transport yo'laklarini faol rivojlantirishga ahdlashib oldilar.

Mamlakatlarimiz suv sohasida yuksak darajada hamkorlik qilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Toshkentda imzolangan Amudaryo bo'yicha bitimni keng ko'lamda amalga oshirmoqdalar.

Ustuvor yo'nalishlar orasida - hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish va madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash. Prezidentlar fan, ta'lim, san'at, kino va turizm sohalaridagi almashinuvlarni faollashtirish zarurligini qayd etdilar.

Kelgusi yilda ikkala mamlakatda barcha viloyatlar ishtirokida Madaniyat va kino kunlari, yoshlar festivallari o'tkaziladi.

Belgilangan maqsadlarga erishishda Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolanishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

- Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz do'stlik va yaxshi qo'shniçilikni mustahkamlashga, ikki mamlakatning ravnaqiga xizmat qilishiga ishonamiz, - dedi muzokaralar yakunida O'zbekiston yetakchisi.



Manba